

Interfaol ta'lim usullarining boshlang'ich ta'limda tutgan o'rni

Toshkent viloyati Piskent tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Oxunjonova Ma'mura Abdunabiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol ta'lim usullarining boshlang'ich ta'limda tutgan o'rni bo'yicha taklif va mulohalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol usul, savod, zamonaviy ta'lim, texnologiya, boshlang'ich.

Umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim asosida o'tiladigan interfaol dars texnologiyalari o'quvchilarni har taraflama o'z qobiliyatlarini namoyon qilishda, eng asosiysi ona tilidan nutqiy ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'lkelishi mumkin. Bu usuldagi darslar yangi davr kishisini tarbiyalashda kamolga keltirishda yordam beradi. Hozirgi kunda barcha pedagoglar darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o'rganish faolligini oshirishga erisha oladi. Buning uchun o'quvchilarning interfaol o'quv mashg'ulotga tayyorlash, o'tilgan mavzuni o'zlashtirib olishlari, xamda o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o'qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o'tkaza bilishlari, ijodiy, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur. Ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o'quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog'langan. Interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta

masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydi.



Zigzag» strategiyasi metodi. Bu usulda sinf o‘quvchilari 7 ta guruhga bo‘linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan o‘rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a‘zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o‘quvchilari o‘zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so‘zlab berganlaridan so‘ng, matnlar guruhlarga almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlarga tomonidan o‘rganib chiqilgach o‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g‘oyalar asosida

mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. Soʻngra oʻzlashtirilgan bilimlar asosida oʻquvchilarning oʻzlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

“ZAKOVATLI ZUKKO” metodi. Mavjud bilimlarni puxta oʻzlashtirishda oʻquvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi oʻquvchlarda tezkor fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod oʻz xohishlariga koʻra shaxsiy imkoniyatlarini sinab koʻrish istagida boʻlgan oʻquvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda toʻgʻri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga koʻra har bir savolga qaytarilgan toʻgʻri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning oʻrtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi oʻquvchlarning shaxsiy imkoniyatlari toʻgʻrisida aniq tasavvurga ega boʻlishlarini taʼminlaydi. Metod oʻquvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qoʻllanilishi mumkin.



Qorbobodan boshqotirma

Siniq chiziq nechta uch va nechta boʻgʻinga ega?



Javob: 12 ta uch, 10 ta boʻgʻinga ega.

Xullas, oʻquvchining oʻz-oʻzini boshqarishi natijasida oʻquv jarayoni faollashadi. Oʻquvchining oʻz xatti-harakatini oʻzi nazorat qilishi, yoʻl qoʻygan xatolarini oʻzi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman

izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi, o‘quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Daniyarov B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2012-yil.
2. .Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. T.2001-yil
3. Yo‘ldashev J.G‘. va boshqalar “Interfaol ta’lim-sifat kafolati” Toshkent-2000-yil.